

**YERNI MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN QISHLOQ  
XO'JALIGINING TURLI SOHALARIDA FOYDALANISH.**

**Bekmurodova Muyassar Yodgor qizi**

*stajyor-o'qituvchi muyassarbekmurodova1998@gmail.com*

**Salimov Shahzod**

*talaba*

**Jo'raqulov Fazliddin**

*Talaba "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resur slarni boshqarish instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yerni masofadan zondlash materiallaridan qishloq xo'jaligining turli sohalarida keng ko'lamli foydalanish haqida so'z yuritiladi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida masofadan zondlash ma'lumotlarining afzallilik darajasi va ulardan oqilona foydalanish to'g'risida fikrlar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *aerosyomka, aerosur'at, fotogrammetriya, uchish apparatlari, samolyot, fotokamera, dron, qishloq xo'jaligi.*

**Annotation:** *This article discusses the wide-scale use of remote sensing materials in various fields of agriculture. Today, opinions are given about the level of advantage of remote sensing data and their rational use in agriculture.*

**Key words:** *aerial camera, aerospeed, photogrammetry, flying machines, airplane, photo camera, drone, agriculture.*

## **KIRISH**

Hozirda fan va texnika to'xtovsiz rivojlanayotgan bir vaqtda deyarli barcha sohalarga kirib borayotgan masofadan syomka qilish ishlari, fotogrammetriya materiallari, fotogrammetriya materiallaridan turli soha va turli maqsadlarda foydalanish kabi masalalar barcha shu soha vakillarining yanada ilg'or texnologiyalarni qo'llash lozimligidan darak bermoqda. Ushbu ma'lumotlar qishloq xo'jaligini ham chetlab o'tmadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining deyarli barcha sohalarida masofadan zondlash materiallaridan foydalanilmoqda.

Fotogrammetriya va hududlarni masofadan zondlashning xalq xo'jaligidagi o'rni, suratlarda bajariladigan stereofotogrammetrik o'lchashlar turlari, o'lchash asboblari va ular bilan ishlashga oid nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatish, s'yomkalarni bajarishda qo'llaniladigan zamonaviy asboblarni tanishish, obyektlarning shaklini, o'lchamini, fazoviy joylashuvini uning fotografik tasviri orqali aniqlash, shuningdek uning xususiyatlarini raqamli va grafik ko'rinishda tasavvur qilish bo'yicha nazariy hamda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish, yer yuzini plan, karta va profillarini tuzish hamda turli injenerlik-geodezik masalalarni suratlar orqali yechish yo'llarini o'rganadi. Bundan ko'rinib turibdiki, masofadan zondlash materiallaridan qishloq xo'jaligining barcha sohalarida qo'llaniladi va samarali natijalarga erishilmoqda.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligining turli sohalarida turlicha maqsadlarda yerni masofadan zondlash materiallaridan foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini ro'yxatga olish, ekinlarni kuzatish, chegaralarni aniqlash, ekin turlarini aniqlash, tuproq unumdorligini

aniqlash, ko'p yillik ma'lumotlarni tahlil qilish, ekinlarning hosil ko'rsatkichlarini taqqoslash va shu kabi boshqa ko'plab maqsadlarda foydalaniladi.

Bugungi kunda yerni masofadan zondlashning imkoniyatlari, uning afzalliklari va qo'llanilish sohalari juda keng. Bugungi kunda deyarli barcha soha vakillari yerni masofadan zondlash materiallariga ehtiyoj sezmoqda. Masofadan zondlash deganda ma'lum yoki hodisa bilan kontaktsiz ma'lumot yig'ishga aytiladi. Masofadan zondlash atamasi asosan turli radiolokator, mikroto'lqinlarni ushlovchi priyomniklar kamera, skaner va shunga o'xshash asboblarda yordamida elektromagnit nurlanishni registratsiya qilish tushuniladi.

Masofadan zondlash okeanlar tubi haqida, yerdagi atmosfera va quyosh sistemasi to'g'risida ma'lumotni yig'ish va uni yozib olish uchun qo'llaniladi.

Masofadan zondlashda dengiz kemasi samolyot va kosmik uchuvchi apparatlar va yerga o'rnatilgan teleskoplar yordamida amalga oshiriladi.

Ilm fanning dala ishlari bilan bog'liq. bo'lgan kadastr, geologiya, geografiya kartografiya va shunga o'xshash yo'nalishlarida tadqiqot ishlari olib borishda asosan distansion zondlashdan foydalaniladi.

Fotogrammetriya bir nechta kichik cheklovlarga ega bo'lsa-da, u yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarni, 3D modellarni va landshaft yoki obyektning haqiqiy, doimiy yozuvini an'anaviy usullarga qaraganda ancha oson, tezroq va arzonroq tarzda ishlab chiqarishga qodir.

Yerni masofadan zondlash materiallaridan foydalanishda asosan biz deshifrlash ishlarini amalga oshiramiz. Deshifrlash jarayoni asosan sur'atlarni qayta o'qish, turli belgilar orqali o'rganish jarayoni hisoblanadi.

Barcha qishloq xo'jalik yer turlari, deshifrovkalashda tegishli shartli belgilar bilan chizib olinadi. Qishloq xo'jalik yer turlariga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida foydalaniladigan barcha yerlar kiradi.

Haydashga yaroqli yerlar, bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevazorlar, mevali ko'chatzorlar, pichanzor va yaylov yerlari qishloq xo'jalik yer turlari tarkibiga kiradi.

Deshifrovkalashda barcha qishloq xo'jalik ekin yerlari, jumladan shudgorlangan yerlar «Ekin yerlar» belgisi bilan belgilanadi.

Ekinzor konturlar to'g'ri shakldaligi bilan boshqa konturlardan ajralib turadi. Shudgorlar aerosuratga oq rangda, maysazorlar esa och kul rangda tushadi.

Issiqxonalar bilan band yerlar deshifrovkalanganda o'z shartli belgilari bilan belgilanadi

Aholi yashaydigan qishloq joylaridan tashqaridagi fuqoralarga berilgan tomorqa yerlari alohida konturlanib «dala tomorqa» belgisi bilan belgilanadi. Shuningdek «dehqon fermer xo'jaligi yeri» belgisi bilan alohida konturda ko'rsatiladi

Muntazam foydalanib kelingan ammo bir yil va undan ortiq muddatda foydalanilmayotgan yerlar bo'z yerlarga kiradi.

Pichanzor va yaylovlarning, tabiiy o'simliklar unib chiqishi uchun shudgorlab tashlangan maydonlari bo'z yerlarga kirmaydi.

Sun'iy ravishda ekilgan meva hosili yoki texnik mahsulot beruvchi daraxtlar, butalar, ko'p yillik o'rmonda o'sadigan o'simliklar ekilgan yer maydonlari ko'p yillik daraxtzorlarga kiradi.

Sug'oriladigan va daryo yo'nalishi bo'ylab joylashgan bog'lar tokzorlar va boshqa ko'p yillik daraxtzorlar alohida konturlanib tegishli shartli belgilar bilan chizib olinadi.

Ko'p yillik daraxtzorlar bilan band bo'lgan maydonlar ichidagi yo'llar, inshootlar bog' atrofidagi ixotazor daraxtlarning tarkibi deshifrovkalanadi va tegishli shartli belgilar bilan belgilanadi.

O'simliklar qoplami chorva mollarini boqish uchun foydalaniladigan va shunday foydalanish uchun asos hisoblangan yer maydonlari yaylovlar deyiladi.

Toshlar bilan ifloslangan, shuningdek qumloq va toshloq, saksovul va butalar bosgan, haydaladigan yerlarda yaratilgan madaniy yaylovlar, chorva mollarini sug'orish uchun suv bilan ta'minlangan yaylovlar deshifrovkalanishda alohida konturlanib, tegishli belgilar bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yerni masofadan zondlash materiallaridan qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida foydalanamiz va bu jarayonni asosan deshifrlash orqali amalga oshiramiz. Bunday jarayonlar bizga ko'p ma'lumot olishimiz va yuqori aniqlikka erishishimizda yordam beradi. Yerni masofadan zondlash materiallari bizga ko'plab ma'lumot olish, sur'atlarni qayta o'qish va boshqa ko'plab ishlarda qo'l keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.M.S.Akbarov, D.K.Muhitdinov Fotogrammetriya "O'quv qo'llanma". Toshkent-2015.
- 2.Wilfred Linder Digital Photogrammetry A Practical Counce 2009, 211p
- 3.N.V.Kovalyov, Dj.K.Muxitdinov, O.G.Shukina, M.B.Xamidova Fotogrammetriya va yerni masofadan tadqiq etish "O'quv qo'llanma" . T,TAQI-2015, 160-b.
- 4.Sattorov, S. Y., Abdulloyev, A. M., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Database in Land Resource Management. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
5. Sattorov, S. Y., Abdulloyev, A. M., Ochilov, A. B., & To'xtamishov, A. B. (2022). Importance of Remote Sensing Data in The Study of Land Resources. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
6. Сатторов, Ш. Я. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ БАЗЫ ГЕОДАНЫХ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ГЕОВИЗУАЛИЗАЦИЯ. Current approaches and new research in modern sciences, 1(2), 9-15.
7. Boltavich, T. X. A., Akbar O'g'li, I. T., Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Valijonovich, S. M. (2022). QURILISH JARAYONIDA INJENERLIK GEODEZIYASINING ROLI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 904-910.
8. Boymurodovich, O. A., Akbar O'g'li, I. T., & Muzaffarovich, A. A. (2022). QURILISHDA GEODEZIK ISHLARNI TURLARI, TARKIBI VA ULARNI KUZATISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 894-898.
9. Boymurodovich, O. A., Akbar O'g'li, I. T., & Muzaffarovich, A. A. (2022). QURILISHDA GEODEZIK ISHLARNI TURLARI, TARKIBI VA ULARNI KUZATISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 894-898.

10. Yarashovich, S. S. (2021). Development of Space Data Model in Passage of Pasture Land. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(1), 34-37.

11. Ro'Zimov Surojbek Norbek, O. G., & Qizi, B. M. Y. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINI JOYLASHTIRISHDA SUN'Y YO'LDOSH MA'LUMOTLARINING AHAMIYATI. Ta'lim fidoyilari, 2(1), 198-202.

12. Usmonovna, N. N., & Qizi, B. M. Y. (2023). YER RESURSLARINI BOSHQARISHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI IXTISOSLASHTIRISH VA TARMOQLARINI TO'G'RI TAQSIMLASH. Ta'lim fidoyilari, 2(1), 203-210.

13. [www.geodetic.com](http://www.geodetic.com)

14. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)

15. <http://wiki.agisoft.com>

16. [https://styly.cc/tips/photogrammetry\\_summary](https://styly.cc/tips/photogrammetry_summary)